

## NORMUROD NORQOBILOV NIKOYACHILIGIGA BIR NAZAR

*Gulruhbegim Narimbetova, talaba*

*Ilmiy rahbar: Mohira Sadullayeva*

*Qoraqalpoq davlat universiteti, o'zbek filologiyasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqoladan nasrning eng ko'p qo'llaniladigan janrlaridan biri hikoyaning mavzu va mundarijasi, g'oyasi, umuminsoniy qamrov ko'lami, badiiyligi – strukturasi, obrazlari va uslub o'ziga xosligi kabi masalalar Normurod Norqobilov hikoyalari misolida tahlil etildi. Adibning "Oriyat" va "Yetim qolgan gullar" hikoyalarida qo'llanilgan portret va peyjaz unsurlari haqida mulohazalar keltirilgan. Asar qahramonlarining xarakteristikasini yoritishda bu unsurlar qay darajada ahamiyatli ekanligiga to'xtalib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** hikoya, janr, obraz, xarakter, folklor, jahon adabiyoti, struktura, badiiyat.

**Annotation:** In this article, one of the most widely used genres of prose, such as the theme and content of the story, the idea, the scope of universal coverage, artistic structure, images and uniqueness of the style, were analyzed on the example of the stories of Normurod Norqabilov. There are comments about the portrait and landscape elements used in the writer's stories "Ariyat" and "Orphaned Flowers". It was discussed how important these elements are in elucidating the characteristics of the heroes of the work.

**Key words:** story, genre, image, character, folklore, world literature, structure, art.

**Аннотация:** В данной статье на примере произведения проанализированы один из наиболее широко используемых жанров прозы, такие как тема и содержание рассказа, идея, сфера всеобщего охвата, художественная структура, образы и своеобразие стиля. Рассказы Нормурода Норкабилова. Имеются замечания по поводу элементов портрета и пейзажа, использованных в рассказах писателя «Арият» и «Осиrotские цветы». Обсуждалось, насколько важны эти элементы в выяснении характеристик героев произведения.

**Ключевые слова:** рассказ, жанр, образ, персонаж, фольклор, мировая литература, структура, искусство.

Nasrning eng ko'p qo'llaniladigan janrlaridan biri hikoya o'zining mavzu va mundarijasi, g'oyasi, umuminsoniy qamrov ko'lami, badiiyligi – strukturasi, obrazlari va uslubi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Hozirgi hikoyachilikka nazar solsak, ularda bir tomonidan xalq og'zaki ijodi, ikkinchi tomonidan, jahon adabiyoti tajribasi uyg'unlik kasb etadi. Muhimi, bugungi hikoyalarimizda mana shunday ulkan tajriba

omillarini adabiyotning tiganmas manbai, Yaratganning san'ati – hayot voqeligi bilan sintezda ifodalashga urinishlar bor.

Mustaqillik tufayli hikoyalar mazmun va g'oya jihatdan o'zgarish yasadi, yangi qahramonlarning kirib kelishi, qamrovning kengligi, ramz va timsollarga boyligi bilan avvalgi davr hikoyalaridan birmuncha farq etadi.

Bugungi kunda nasrda, ayniqsa, hikoyachilikda sezilarli yutuqlarga erishgan Normurod Norqobilov o'zining asarlari bilan o'zbek adabiyotida salmoqli o'ringa ega bo'lgan adib. U "Chorraha", "Zangori yo'l", "Yuzma-yuz", "Paxmoq", "Sariqgul", "Unutilgan qo'shiq" kabi bir qator hikoya va qissalarida davrning turmush manzaralari, milliy urf-odat va an'analarining in'ikosini, turli xil obrazlar xarakterini yaratgan.

Biz ushbu maqolada, Normurod Norqobilovning "Oriyat" va "Yetim qolgan gullar" hikoyalari tahliliga qisqacha to'xtalib o'tdik va bu orqali adibning badiiy mahorat qirralarini olib berishga urundik. "Yetim qolgan gullar" hikoyasida yozuvchi peyzaj yaratishda kuchli mahoratga ega ekanligini ko'rsatgan. Ko'pincha ijodkorlar qahramon tashqi qiyofasi, ruhiy po'rtanasi, uning atrof-muhit bilan uyg'unlashtirgan holda tasvirlaydilar va bu hodisa, asarning badiiy-estetik quvvatini ta'minlashga xizmat qiladi. "Badiiy asardagi tabiat tasviri peyzaj (manzara) deb ataladi. Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, asarning g'oyaviy-estetik quvvatini oshiradi"[2:116]. "Peyzaj – odamning o'zini o'rab turgan tabiiy muhiti va har qanday ochiq maydonning tasviridir"[1:732]. Odatda, peyzaj adabiy asarning turiga qarab farqlanadi. Masalan, she'riy asarlarda lirk qahramonning ruhiyat manzarasini, tuyg'ularini, shuningdek, lirk voqeа makonini ifodalashda qo'llansa, nasriy asarlarda makon va zamonni tasvirlash, qahramonlar xarakterini aniqroq ifodalashda asosiy vazifani bajaruvchi vosita bo'lib ham xizmat qiladi.

Yozuvchi "Garmsel" ni tasvirlash uning xarakteristikasini yoritishda tabiatdagi tabiiy hodisalar bo'lmish bo'ron va shamol obrazlarida unumli foydalangan. Garmsel – bu jazirama kunlarda yoki sahrolarda bo'lib turadigan issiq shamol oqimi. "Garmsel" ning hikoyada keltirishi bejiz emas. Unda ramziylikni ifodalagan, ya'ni garmsel bu hikoyada yomon niyatli, ichi qora odamlar timsolini aks ettirgan. Yomon illatlar ham ayni garmsel kabi issiq kuydiruvchan va vayronakor g'oayalar bilan yo'g'rilgan: "Ko'p qavatli g'ishtin uylar-u ko'kka nayzadek sanchilgan quvurdan kun-u tun ko'kish qoram tir tutun arimaydigan korxona...". Bu kabi peyzaj tasvirlarida o'xshatish va jonlantirish vositalarida mahoratli foydalanishi adibning o'zgacha dunyoqarashini olib bergen. Hikoyada obrazlar xilma-xilligi kuzatiladi. Ya'ni juvon, uning qizi, bir yigit, garmsel va garmselning singlisi, "yengil shabada" ozbrazilari shular jumlasidandir. Yozuvchi: "Oppoq to'shakda pish-pish uxlayotgan qizchasi tepasida xayolchan o'tirgan xushro'y juvon" va "yotligi – shaharcha ahliga xos loqaydlik yo'qligi" deya asar qahramonining ruhiyatida chigal muammolar borligini ko'rsatadi.

Bu juvon ham hayotdan xafa ham shu xafaligi sababli dunyoga bee'tibor bo'lgan ayol obrazi ekanligini yozuvchi kitobxonga uqtirishga harakat qiladi. Juvon o'stirgan gullarning (atirgullarning) garmselga yoqmasligi ham aynan uning boshqalar kabi loqayd emasligi edi aslida. Bu orqali adib jamiyatimizdagi ayrim bir tabaqa vakillarini, ularning xarakterlarini ko'rsatishga urungani ayni haqiqat.

"Oriyat" hikoyasida ham ana shunday tasvir vositalaridan mohirona foydalanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu hikoya qahramoni "bola"ning yoshligi hali ancha quv, sodda va ishonnuvchan ekanligi hayot haqida hali to'la tasavvurga ega emasligi ko'rsatilgan. Uning bolalarcha sho'xligi, alamzadaligi shu bilan birga yoshligi yozvchi tomonidan uning xarakterini yoritishda anglashiladi. Ammo bosh qahramon "bola" haqida hikoyaning biror joyida yozuvchi tomonidan portret yaratilmaydi. Uning portreti butun asar mazmuniga singdirib yuborilgan. Aynan hikoyada keltirilgan Musa fermer, bolaning otasi, Musa fermerning qizi, xotini Norgul chaqqon va choridono obrazlari bolaning tabiatini yoritishda yetakchi vazifa bajargan. "Qiziq elakda un elanadi bug'doy elanadi...qanaqasiga uni kishi og'ziga tutib yurish mumkin. Ammam meni kalaka qilyapti!" kabi bola tilidan keltirilgan bu jumlalar uning ammasi tomonidan aytilgan "el og'ziga elak tutolmaysan" degan gapiga bildirgan fikrini ko'rish mumkin. Jumlada bolaning ruhiyati va ongi qay darajada ekanligini ko'rsatib turibdi.

Yuqorida tahlil qilingan hikoyalarning har ikkalasida ham obraz xarakterini ochib berishda aynan portret va peyzaj uyg'unligini ularning yetakchi vosita ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Normurod Norqobilovning o'z asarlarida obraz yaratish va peyzaj masalasiga alohida e'tibor berishi obraz portreti orqali uning xarakteristikasini yoritishda bu unsurlardan unumli foydalanish qobiliyatiga ega ekanligi alohida e'tiborlidir. Biz tahlil qilgan hikoyalar orqali ijodkorning qahramon ruhiyatini boshqa ijodkorlarga o'xshamagan tarzda ifodalay olishini ko'rishimiz mumkin. Hikoyachilikda ifoda etiladigan har qanday fikr, inson qalbi kechinmalarining tasviri, ruhiyat tasvirining o'ziga xosligini doimo kuzatib kelayotgan Normurod Norqobilov hozirda o'zining aniq yo'nalishiga egaligini aytib o'tish joiz. Adib o'ziga xos, betakror uslubga ega ijodkor. Haqiqatan ham, uning hikoyalari mazmunan turfa bo'lishiga qaramay barchasida chin insoniy fazilatlar ulug'langan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi kunga kelib, o'zbek nasri, ayniqsa, hikoya janri, hikoyachilik yangi bosqichga ko'tarildi desak, o'rnlidir. Mavzudan tortib qahramon, obraz, xarakter, voqelikkacha tubdan yangilanish bo'ldi. Har bir davr o'zining yangi qarashlari va tamoyillarini yuzaga keltirishi tabiiy hol. Noodatiy, zamонавиј ruhdagi asarlarning dunyoga kelishi va birmuncha jonlanishi shuning mahsulidir.

**Foydalaniman adabiyotlar:**

1. Литературная энциклопедия терминов и понятий. Москва.НПК «Интелвак», 2001.-Ст.732.
2. Султон И. Адабиёт назарияси. Тошкент. Уқитувчи, 2005. – Б.116.0-
3. Qosimov Y. She'r va dunyo. "Sharq yulduzi" jurnali. 1-сон, 1989. 168-бет.
4. I.Sulton. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent.2005. B-115